

OTAMDAN QOLGAN DALALAR ROMANIDA XALQ FOJEASI TASVIRI

O'roqova Bahora Baxrom qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek tili va adabiyoti Universiteti

masofaviy ta'lim fakulteti O'zbek tili

va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

email. bahorafarmonova68@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada To'g'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida xalq fojeasining badiiy tasviri tahlil qilinadi. Asarda o'zbek xalqining og'ir turmush tarzi, ijtimoiy muammolari hamda insoniy kechinmalari realistik usulda yoritilgan. Shuningdek, yozuvchining badiiy mahorati va milliy ruhni aks ettirishdagi o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: xalq fojeasi, badiiy tasvir, milliy ruh, realizm, qishloq hayoti, ijtimoiy muammo

"Otamdan qolgan dalalar" romani To'g'ay Murod ijodining yuksak namunalaridan biri bo'lib, milliy adabiyotimiz tarixida muhim badiiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Asarda xalq hayoti, uning dard va kechinmalari chuqur realizm asosida tasvirlangan. Yozuvchi roman orqali o'zbek xalqining og'ir qismati hamda ijtimoiy muammolarini badiiy mahorat bilan yoritib bergan.

Yozuvchi asarda oddiy xalq hayotidagi og'ir azob-uqubatlarni ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Shunga qaramay, qahramonlar barcha qiyinchiliklarga chidab, sabr qilishdan to'xtashmaydi. Asarda insonlarning asosiy tashvishi mehnat, dala ishlari va ro'zg'or tebratishdan iborat. Ayniqsa, ayollar obrazi orqali o'sha davrdagi og'ir turmush sharoiti tasvirlangan. Ular farzand tarbiyasi bilan bir qatorda kun bo'yi dalada mashaqqatli mehnat qilishga majbur bo'ladi.

Bu kabi ayanchli holatlar asardagi Dehqonqul va uning oilaviy muhiti misolida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi ushbu obrazlar orqali xalqning ruhiy iztiroblari va ijtimoiy muammolarini to'liq ochib beradi.

Asarda davr fojeasi, qullik, iskanjasini ifodalash uchun uchlik ramzi domiy ishlatilgan. boshqaruv ranglarda akslanadi; oq (paxta, billur, suv tuproq) qizil (hukumat bayroq quyosh) qora (ter, mehnat) asarda bosh uchlik esa Jamoliddin aqrab va Dehqonqul.

Dehqonqul obrazi asardagi eng muhim timsollardan biridir. Yozuvchi ushbu obraz orqali oddiy xalqning mashaqqatli hayoti, dunyoqarashi va ruhiy holatini tasvirlaydi. Dehqonqul samimiy, mehnatkash, mehmondo'st va sodda, ilm-fandan

uzoq inson sifatida tasvirlangan. U umrining asosiy qismini dala mehnati bilan o‘tkazgani sababli ilm-fandan yiroq kishi sifatida gavdalangan.

Asarda Dehqonqulning ayrim ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning kamchiliklari ham ko‘rsatib beriladi. Jumladan, uning hayotga sodda qarashi va ayrim vaziyatlarni chuqur anglay olmasligi aks etgan. Masalan, homilador xotining olma yegisi kelganini tushunsa-da, unga olib berolmasligi oddiy va nochor turmushdan dalolat beradi.

Shuningdek, Dehqonqulning shlyapa kiyib o‘zini ziyoli inson deb hisoblashi, o‘zini “oq suyak” qilib ko‘rsatishga urinishi, qimmat matoni oyog‘iga paytava qilishi uning sodda dunyoqarashini ko‘rsatadi. Hatto uning allaqachon vafot etgan insonga, ya’ni Leninga yordam so‘rab xat yozishi ham qahramonning savodsizligidan dalolat beradi.

Dehqonqulning xotini obrazi ham asarda muhim o‘rin tutadi. U orqali yozuvchi qishloq ayollarining og‘ir turmush sharoiti va cheksiz mehnatini ochib bergan. Shu bilan birga, unda ayollarga xos orzular — sayohat qilish, yangi liboslar kiyish istagi ham mavjud, ammo sharoit bunga yo‘l qo‘ymaydi. Ertalabdan kechgacha boshqalar qatori mehnat qiladi, kechasi esa charchaganidan dasturxon boshida uxlab qoladi. Oxir-oqibat ayol bu kabi qiyinchiliklarga dosh berolmay, fojeali taqdirga duch keladi.

Asarda Guljaxon, Qumri, Oysuluv kabi obrazlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Ularning qora mehnatga qorishib qolgan hayoti davrning naqadar kambag‘alligini insonlarning insonlar tomonidan uyushtirilgan fojea qarshisidagi ojizligini ko‘rsatib bergan. Muxbirning ismiz nima degan savoliga "paxta" kasbingiz nima degan savoliga "paxtakor" deb hasrat va nafrat ohangida javob bergan. Bolxn momoning 80 yil umri chanoqlarga ilinib tugayotgani zamon uni o‘ziga moslab olgan.

Asarda muhim obrazlardan yana biri — rais obrazi hisoblanadi. Rais Dehqonquldan faqat o‘z ehtiyojlari yo‘lida foydalanadi. Asarda raisning munosabati insoniylikdan ko‘ra manfaatparastlikka yaqin ekani ko‘rsatiladi. Shuningdek, raisning qizi unashtirilganda u Dehqonqulni faqat xizmat uchun chaqiradi va uni dasturxondan uzoqda tutadi. Bu holat yozuvchi tomonidan jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va insonlarga bo‘lgan munosabat murakkabligini ochib berishda muhim vosita sifatida qo‘llanilgan.

To‘g‘ay Murodning ushbu asarida Surxon vohasining iqlimi, manzaralari hamda insonlarning yashash muhiti ham yorqin aks ettirilgan. Yozuvchi har bir asarida hayot haqiqatiga tayanadi. Bu shunchaki to‘qima emas, balki real hayotdan olingan voqealardir. Yozuvchi dehqonlar bilan birga dalada mehnat qilgan, ularning hayotini chuqur o‘rgangan va natijada o‘zining Dehqonqul obrazini yaratgan. Shu tariqa “Otamdan qolgan dalalar” romani dunyoga kelgan.

Asarda sho‘ro davrida olib borilgan siyosat oqibatida oddiy xalqning og‘ir hayoti ham tasvirlangan.

Insonlar ko‘pincha ilm olish imkonidan mahrum bo‘lgan. Hatto maktab yoshidagi bolalar ham dalaishlariga jalb etilgan. Natijada yosh avlodning ta‘lim olish imkoniyati cheklangan. Bu esa jamiyattaraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda, asarda oddiy xalqning og‘ir mehnat evaziga kun kechirishi, turli qiyinchiliklarga bardosh berishi chuqur badiiy tasvirlangan. Yozuvchi Tog‘ay murod roman oxirgi ilovasida "Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman" deb bejizga yozmagan edi. Ushbu roman bilan chindan ham katta haykal qo‘ydi. Asarni o‘qir ekanmiz, bugungi tinch va farovonhayotimizning qadriga yetish zarurligini his qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi Umarali Nosirov maqolalari
2. To‘g‘ay Murod " Otamdan qolgan dalalar" asarlar
3. www.edu.uz
4. ziyo.uz
5. oyina.uz
6. Saddullayeva Dilnoza Eshboyeva" " Otamdan qolgan dalalar" asarida badiiy obrazlar tahlili" maqolasi.